

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIA MEDITSINASI, CHORVACHILIK  
VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**



**IQTISODIYOT FAKULTETI**

**“IQTISODIYOT VA BUXGALTERIYA HISOBI”  
kafedrasi assistenti, Nurmanov Sherzod Xujayarovichning**

**“Chorvachilikda ishlab chiqarishni tashkil etish va menejment” fanidan**

**“Chorvachilik korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy asoslari”  
mavzusi bo‘yicha 5410600 Zooinjeneriya (turlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi  
talabalari uchun**

**OCHIQ AMALIY MASHG‘ULOT DARSI UCHUN ISHLANMA**

**Samarqand -2023**

**Tuzuvchi:**

**Nurmanov Sh.** -“Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrasi assitenti

**Taqrizchilar:**

**Alikulov A.I.** - “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi” kafedrasi professori v.b., i.f.d.

**Tangirov A.E.** –SamISI “Menejment”kafadrasi dotsenti, i.f.n.

## **Chorvachilik korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy asoslari.**

### **Reja:**

- 1.O‘zbekistonda fermerlikni rivojlantirishni ustuvorligi. Fermer xo‘jaliklarining yer maydonlarini optimallashtirish
- 2.Agrofirmalarni tashkil etish va rivojlanish asoslari.

**Tayanch iboralari:** agrofirma, agrosanoat birlashmalari, biznes reja, davlat buyurtmalari, davlat tasarrufidan chiqarish, dehqon xo‘jaligi, egalik qilish, fermer xo‘jaligi, ijara, jamoa mulki, mulk, mulkchilik shakllari, tender, ustav fondi.

### **AMALIY MASHG‘ULOTDA TA’LIM TEXNOLOGIYASI**

<i>O‘quv soati:</i> 2 soat	<i>Talabalar soni:</i> 100 tagacha
<i>O‘quv mashg‘ulotining shakli – amaliy</i>	<b>Mavzu- Chorvachilik korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy asoslari</b>
<i>Mavzu rejasি</i>	<p>2.1.O‘zbekistonda fermerlikni rivojlantirishni ustuvorligi. Fermer xo‘jaliklarining yer maydonlarini optimallashtirish</p> <p>2.2.Agrofirmalarni tashkil etish va rivojlanish asoslari.</p>

#### *Amaliy mashg‘ulotining maqsadi:*

**Ta’limiy:** Chorvachilik korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy asoslari haqida ma’lumotlarga, bilimlarga hamda ko’nikmalarga ega bo’ladi.

**Tarbiyaviy:** Chorvachilik korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy asoslari haqida tasavvurlar shakllanadi.

**Rivojlantiruvchi:** Talabalarda Chorvachilik korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy asoslari oid tafakkur va dunyoqarashini rivojlantiradi.

<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i>
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Chorvachilik korxonalarida turli mulkchilik, ularni tashkil etish tamoyillari va shakllari to‘g’risida tushuncha berish.</li> <li>2.Chorvachilik korxonalari vazifalarini o’rgatish.</li> <li>3.Fermer xo‘jaliklarining tashkiliy-iqtisodiy asoslari to‘g’risida tushuncha berish.</li> <li>4.Fermer xo‘jaliklarining yer maydonlarini optimallashtirish to‘g’risida tushuncha berish.</li> <li>5.Agrofirmalarni tashkil etish va rivojlanish asoslari to‘g’risida</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Chorvachilik korxonalarida turli mulkchilik, ularni tashkil etish tamoyillari va shakllari to‘g’risida umumiylashtirish ega bo’ladilar;</li> <li>2. Chorvachilik korxonalari vazifalarini to‘g’risida kompleks bilimlar hosil bo’ladi;</li> <li>3.Fermer xo‘jaliklarining tashkiliy-iqtisodiy asoslari to‘g’risida umumiylashtirish ega bo’ladilar;</li> <li>5. Fermer xo‘jaliklarining yer maydonlarini optimallashtirish to‘g’risida tushunchaga ega bo’lishadi.</li> <li>6.Agrofirmalarni tashkil etish va rivojlanish asoslari to‘g’risida tushunchaga ega bo’ladi.</li> </ol>

tushuncha berish.	bo'lishadi.
<b>Ta'lim metodlari</b>	Amaliy mashg'ulot, savol-javob, aqliy hujim, blis so'rov, o'zaro o'qitish metodi, "Muammoli vaziyat" metodi.
<b>Ta'lim vositalari</b>	Amaliy mashg'ulot matni, videoproyektor, slaydlar, asosiy ma'lumot va tayanch tushunchalardan iborat ma'ruza bo'yicha tarqatma material.
<b>Ta'lim shakllari</b>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishslash.
<b>O'qitish shart-sharoiti</b>	Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishslashga mo'ljallangan auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat, savol-javob, reyting tizimi asosida baholash.

### AMALIY MASHG'ULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1 - bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa)	<p>1.1. Talabalar davomati aniqlanadi, auditoriya va talabalarning darsga tayyorlarligi tekshiriladi.</p> <p>1.2. Bugungi kundagi yangiliklar va mavzuning ahamiyati.</p> <p>1.3. O'tilgan mavzu bilan bog'lash, mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.</p>	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2 - bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa)	<p>2.1. Talabalar e'tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- <i>Chorvachilik korxonalari shakllarini aytib o'ting?</i></li> <li>- <i>fermer xo'jaligi deganda nimani tushunasiz?</i></li> <li>- <i>agrofirma deganda nimani tushunasiz?</i></li> <li>- <i>Chorvachilik korxonalarini vazifalari nimalardan iborat?</i></li> </ul> <p>2.2. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda ma'ruzani bayon etadi:</p> <p>a) <i>Chorvachilik korxonalarida turli mulkchilik, ularni tashkil etish tamoyillari va shakllari to'g'risida tushuncha berib, talabalar diqqatini muhim bo'lgan</i></p>	<p>2.1. Eshitadi.</p> <p>Navbat bilan berilgan savollarga javob beradi.</p> <p>O'ylaydi, javob beradi va to'g'ri javobni eshitadi.</p> <p>2.2. Muammoli vaziyatda o'z fikri bilan, muammoni xal qilish yo'llarini qidiradi.</p> <p>2.3. Eslab qoladi, yozadi.</p> <p>Har bir savolga javob berishga harakat qiladi.</p> <p>Ta'rifni yozib oladi, misollar keltiradi</p>

	<p><i>momentlarini yozib olishlarini ta'kidlaydi.</i></p> <p>b) <i>Chorvachilik korxonalari bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar haqida tushuncha beradi;</i></p> <p>c) <i>Fermer xo'jaligi, uning maqsadi va vazifalarini birma-bir talabalarga savol tashagan holda bilimlarini mustahkamlab boradi, xulosa qiladi, muammoli vaziyat yaratadi;</i></p> <p>d) <i>Fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini optimallashtirish to'g'risida tushuncha beradi, xulosa qiladi, muammoli vaziyat yaratadi;</i></p> <p>e) <i>Agrofirmalarni tashkil etish va rivojlanish asoslari to'g'risida tushunchaga ega bo'lishadi.</i></p> <p>2.3. Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e'tibor qilishni va yozib olishlarini ta'kidlaydi.</p>	
3 - bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega ekanligiga talabalar e'tiborini qaratadi.</p> <p>3.2. Faol qatnashgan talabalarni baholaydi.</p> <p>3.3. Mavzu bo'yicha test topshiriqlarini beradi.</p> <p>3.4. Mustaqil ishslash uchun topshiriq beradi.</p>	<p>3.1. O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadi.</p> <p>3.2. Savol beradilar, javob beradilar.</p> <p>3.3. Mavzu bo'yicha test topshiriqla-rini bajaradilar.</p> <p>3.4. Mustaqil ishslash uchun topshiriqlarni yozadilar.</p>

## **2.1.O'zbekistonda fermerlikni rivojlantirishni ustuvorligi. Fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini optimallashtirish**

Qishloq xo'jaligida davom etayotgan tarkibiy o'zgarishlar jarayoni fermerlikni, dehqon xo'jaliklari bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil qilishning asosiy shakllaridan biriga aylantirdi. Qayta tuzish jarayoni qishloq xo'jaligi korxonalarining (shirkat xo'jaliklarining) tarmoq yalpi mahsulotidagi ulushini 2005 yildagi 14,0 foizdan 2013 yilda 2,0 foizgacha yoki 12,0 foizli qisqarishiga olib keldi. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish ularning barqaror va samarali rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Bog'dorchilik yo'nalishida tashkil etilgan fermer xo'jaliklari o'lchamlari juda kichikligi (o'rtacha 1,5-2,5 ga) bilan birgalikda, yirik qishloq xo'jaligi korxonalarini qayta tashkil etish natijasida bitta shirkat xo'jaligi o'rnida 300-400 fermer xo'jaliklari paydo bo'lishi yetishtirilgan mahsulotni tayyorlash, tashish, saqlash va sotish, shuningdek, moddiy-texnika ta'minoti borasidagi fermerlar faoliyatini

muvofiglashtirishda bir qator muammolar yuzaga keladi. Shu bois bunday muammolar paydo bo'lishining oldini olish, mavjud muammolarning samarali yechimlarini topish maqsadida fermer xo'jaliklari va hududdagi boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, qayta ishlovchilar, savdo va transport tarmog'i korxonalari tomonidan ixtiyoriylik asosida agrosanoat firmalari tashkil etildi.

Yangidan tashkil etilgan bog'dorchilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari yagona yer solig'i to'lashdan 5 yil muddatga; fermer xo'jaliklari, qayta ishslash va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari ishtirokida ixtiyoriylik asosida yangidan tashkil etilgan agrosanoat firmalari esa daromad (foyda) solig'i to'lashdan, yer solig'i, mulk solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (importga qo'shilgan qiymat solig'idan tashqari), yagona soliq to'lovi to'lashdan - 3 yil muddatga ozod qilindi.

Ayni paytda soliq solishdan bo'shaydigan mablag'lar maqsadli ravishda meva-sabzavotni qayta ishslash sohasini rivojlantirish, yangi bog' va uzumzorlar yaratish, kengaytirishga yo'naltirilishi qat'iy belgilab qo'yildi. Ushbu tadbirlar yangi bog' va uzumzorlar barpo etilishini hamda mavjudlarining hosildorligini oshirishni, agrosanoat firmalari tashkil qilishni rag'batlantiruvchi muhim iqtisodiy dastak vazifasini o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirishga qaratilgan takliflar tayyorlash bo'yicha maxsus komissiya tuzish to'g'risida" 2004 yil 4 noyabrdagi F-2069-son Farmoyishini bajarish yuzasidan hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va yuritishning asosiy shakli sifatida fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 dekabrdagi 607-tonli "2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilinib, mazkur qarorga binoan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda maxsus komissiya tomonidan ishlab chiqilgan zarar ko'rib ishlaydigan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini 2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklariga aylantirish dasturi; 2005 yilda fermer xo'jaliklariga aylantiriladigan istiqbolsiz shirkat xo'jaliklari ro'yxati; 2005-2007 yillar davrida qishloqda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

### **Fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini optimallashtirish.**

Fermer xo'jaliklari faoliyatini chuqur tahlil qilish amalga oshirilgan choratadbirlarga qaramay, hali ham fermer xo'jaliklari faoliyatida bir qator kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, ayrim fermerlar tomonidan yer maydonlaridan samarasiz foydalilanilayotganligi, moliyaviy-iqtisodiy ahvolining surunkali nobarqarorligi, moddiy-texnika resurslari bilan yetarlicha ta'minlanmaganligi, yer ajratishda hududlarning tuproq-iqlim sharoiti, aholi zichligi va bandligi kabi masalalar inobatga olinmaganligi, shuningdek xo'jaliklarning tarmoq ixtisosligi (paxta va g'allachilik, bog' va uzumchilik, sabzavot va polizchilik, chorvachilik va

boshqalar) bo'yicha yer uchastkalari maqbul bo'linmaganligi kabi masalalar aniqlandi.

Shuning uchun ham, fermer xo'jaliklari ixtiyoridagi yer maydonlarini optimallashtirish jarayonini amalga oshirish, barqaror iqtisodiy faoliyat uchun asos yaratish maqsadida keng qamrovli chora-tadbirlar ishlab chiqish taqozo etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktyabrdagi F-3077 sonli "Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalarini maqbullashtirish chora-tadbirlari bo'yicha takliflar ishlab chiqish maqsadida maxsus komissiyani tashkil qilish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi ushbu jarayonning boshlanishi bo'ldi.

Ushbu Farmoyishga ko'ra quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- yer uchastkasini biriktirish yuzasidan fermer xo'jaliklari bilan yer ijara shartnomalarini tuzish ishlarini yakunlash. Shartnomalar tuzilgandan keyin yer resurslari bo'yicha tumanlar xizmati vakillari bilan fermer xo'jaliklari rahbarlari ishtirokida ijaraga berilgan yer uchastkalarining chegaralari dalolatnomalar asosida (*fermer xo'jaligining yer uchastkasi chegaralarini ko'rsatish dalolatnomasi*) rasmiylashtirildi;

- yer uchastkalari maqbullashtirilgan fermer xo'jaliklari bo'yicha tumanlar hokimlari tomonidan qabul qilingan qarorlarni viloyatlar hokimi qarorlari bilan tasdiqlash oxiriga yetkazildi;

- fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi va ta'minot tashkilotlari bilan shartnomalar tuzishni tashkil qilish hamda uning ijrosi bo'yicha qat'iy va muntazam monitoring yuritish yo'lga qo'yildi;

- yer uchastkalari maqbullashtirilgan fermer xo'jaliklarining debitor va kreditor qarzları to'liq uning vorisi zimmasiga o'tkazildi;

- fermer xo'jaliklari hududidagi irrigasiya-meliorasiya tarmoqlarini ishchi holatda saqlashni ta'minlash, bunda ularni o'z vaqtida tozalash va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish hisobiga yerlarning meliorativ holatini yaxshilab borish yo'lga qo'yildi;

- tutzor va yakka qatordagi tut daraxtlari fermer xo'jaliklari balansiga o'tkazildi;

- mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish, butun mavsum davomida suv taqsimoti qonun-qoidalariga to'liq rioya etish, zamonaviy suvni tejash texnologiyalarini joriy etib borish yo'lga qo'yildi.

Qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarini yiriklashtirishda quyidagi omillar e'tiborga olindi:

- yer maydonlari kichik bo'lган va ulardan oqilona foydalanimagan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarida oxirgi 3 yil davomida belgilangan kadastr bahosidan past hosil yetishtirgan, tuproq unumdorligining pasayishiga yo'l qo'ygan;

- qonunda belgilangan muddatlarda yagona yer solig'i, boshqa turdagı soliqlar va to'lovlarni muntazam ravishda to'lamagan hamda yirik miqdorda qarzdor bo'lgan;

- davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan Chorvachilik ekinlarini to'liq hajmlarda ekmagan va ular bo'yicha tuzilgan shartnomaviy majburiyatlarni surunkasiga bajarmagan;

- mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanmagan, irrigasiya-meliorasiya va boshqa agrotexnik tadbirlarni o'z muddatida hamda sifatli bajarmagan fermer xo'jaliklari bilan tuzilgan yer ijara shartnomalari bekor qilindi.

Mazkur farmoyish ijrosini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilgan maqbullashtirish jarayonida respublikamizdagi fermer xo'jaliklarining soni 215 ming 776 tadan 105 ming 200 tagacha yoki 52 foizga kamaydi. Ayni vaqtda fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydonlari 27,4 hektardan 56,5 hektargacha ko'paydi.

Bugungi kunda fermer yer va o'zi ishlab chiqargan mahsulotning egasi bo'lib, o'z mehnatining natijasidan bevosita manfaatdordir. Natijada fermerlarning dunyoqarashi tubdan o'zgardi, ularda yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun mas'uliyat hissi kuchaydi.


2013 yil boshiga kelib fermer xo'jaliklari soni mamlakatimiz bo'yicha 73449 tani, ularga uzoq muddatga (30 yildan 50 yilgacha) ijaraga berilgan yer maydoni 4,95 million hektarni tashkil etadi. Bitta fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan ekin maydonlari o'rtacha 2005 yildagi 30,0 hektardan 2013 yilda 84,8 hektargacha oshdi.

Jami fermer xo'jaliklarining qariyb 50 foizdan ortig'i (37567 tasi) paxta va g'alla yetishtirishga ixtisoslashgan. Qolgan qismi esa sabzavot va polizchilikka (3715 tasi), chorvachilikka (7506 tasi), bog'dorchilik va uzumchilik (17068 tasi), shuningdek, asalarichilik, baliqchilik va boshqa turdag'i faoliyat bilan shug'ullanadi.

2005-2013 yillar davrida fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi ulushi 9,7 foizli bandga oshdi va 2013 yilda 34,0 foizni tashkil qildi. Ayni paytda fermer xo'jaliklari paxta xomashyosi (2013 yilda - 99,5%) va g'alla ekinlarining (2013 yilda - 80,6%) asosiy ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi.

1-chizma

### Fermer xo'jaliklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (%da)



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Bunday yuqori natijalarga erishilishining asosiy omillari quyidagilardir:

- birinchi galda tarmoqdagi real ahvolni hisobga olgan hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini chuqur o'rgangan holda qishloq xo'jaligini iqtisodiy isloh qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi;

- qishloqda bozor munosabatlarining joriy etilishi va xususiy mulkchilik shaklining rivojlantirilishi;

- fermerlik harakatini barqaror rivojlantirish uchun huquqiy, tashkiliy, moliyaviy va zamonaviy agroinnovation shart-sharoitlar yaratilgan;

- dehqonlar, fermerlar va mexanizatorlarning, qishloq xo'jaligi bo'yicha barcha mutaxassislarning kasbiy mahorati va o'z ishiga sodiqligi, shuningdek, qishloq xo'jaligidagi barcha resurslar va imkoniyatlarning to'liq safarbar qilinishi.

Fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishi va samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, ularga uzoq muddatli ijaraga yer uchastkalarini ajratish, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish, ularni yig'ish, tashish, qayta ishslash va realizasiya qilish bilan bog'liq barcha masalalarni fermerlar kengashining bevosita ishtirokisiz hal etib bo'lmaydi. Shunday ekan, bugungi kunda fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan barcha darajalardagi fermerlar kengashlari faoliyatiga bog'liq.

Fermerlik harakatini yanada barqaror rivojlantirish, ularning iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmon<sup>1</sup> imzolandi, unga muvofiq fermerlik harakatini tashkil qilish va boshqarish tizimi takomillashtirildi. Xususan, O'zbekiston Fermer xo'jaliklari uyushmasi, Fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tugatilib, O'zbekiston Fermerlar kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlarning fermerlar kengashlari tashkil etildi.

O'zbekiston Fermerlar kengashi tashkil etilganidan keyin mamlakatimizda tuzilgan 13 viloyat, 157 tuman fermerlari kengashlarini eng ilg'or fermer xo'jaliklari rahbarlari boshqarmoqda. Fermerlar kengashlari tarkibiga 1905 kishi kiritilgan bo'lib, ulardan 23 nafari respublika kengashi, 251 nafari - viloyat kengashlari va 1631 nafari - tuman kengashlari a'zolaridir.

Fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish asosan ularning quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradigan ko'p qirrali faoliyatiga bog'liq: bog'dorchilik, poliz ekinlari yetishtirish, servis xizmatlari ko'rsatish, hosilni qayta ishslash, chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik. 2013 yilda 17 482ta (26,4%) fermer xo'jaliklarini ko'p tarmoqli xo'jaliklarga aylantirish rejallashtirilgan. Bu ushbu xo'jaliklarga yetishtirilgan hosilni qayta ishslash, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini kengaytirish, yangi ish o'rinalarini yaratish, eksport faoliyatini keng yo'lga qo'yish hisobiga qo'shimcha daromad olish imkonи beradi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha Respublika komissiyasi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari tomonidan hududiy fermerlar kengashlari, fermer xo'jaliklari rahbarlari ishtirokida hamda jamoatchilikni keng jalb etgan holda fermer xo'jaliklarining moliyaviy va iqtisodiy holatini, fermer xo'jaliklari faoliyatini samarali amalga oshirish, yer uchastkasining ijara shartnomasi shartlarini, fermer xo'jaliklari va tayyorlov tashkilotlari o'rtasida, eng avvalo, davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bo'yicha tuzilgan kontraktasiya shartnomalarini bajarish uchun moddiy texnika bazasining, mehnat resurslari va aylanma mablag'larning mavjudligi o'rzanildi.

Fermer xo'jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini hududlarning mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini, aholi zichligini, fermer xo'jaliklarining iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarini nazarda tutib, ular ishlarining samaradorligini, tegishli kasbiy jihatdan tayyorlangan kadrlar salohiyati mavjudligini hisobga olgan holda yanada maqbullashtirish ishlari amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasida yer maydonlarini maqbullashtirish natijasida jami fermer xo'jaliklarining soni 2015 yil 1 oktyabr holatiga 83514 ta, shundan paxta-g'allachilik fermer xo'jaliklar soni 48264 ta, sabzavotchilik va polizchilik fermer xo'jaliklari soni 2982 ta, bog'dorchilik-uzumchilik fermer xo'jaliklari soni 19575 ta, chorvachilik fermer xo'jaliklari soni 6770 tani tashkil etishgan.

O'zbekiston Respublikasida yer maydonlarini maqbullashtirish natijasida jami fermer xo'jaliklarining soni 2015 yil 1 dekabr holatiga esa 101070 ta, shundan paxta-g'allachilik fermer xo'jaliklar soni 60695 ta, sabzavotchilik va polizchilik fermer xo'jaliklari soni 3655 ta, bog'dorchilik-uzumchilik fermer xo'jaliklari soni 24730 ta, chorvachilik fermer xo'jaliklari soni 6572 tani tashkil etdi.

Maqbullashtirish natijasida o'rtacha fermer xo'jaliklari yer maydoni 36,1 ga, paxta-g'allachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari o'rtacha yer maydoni 52,7 ga, bog'dorchilik-uzumchilik 6,8 ga, chorvachilik fermer xo'jaliklari 31,2 ga yerni tashkil etmoqda. Maqbullashtirish natijasida jami fermer xo'jaliklari soni 17556 taga oshgan

Samarqand viloyatida yer maydonlarini maqbullashtirish natijasida jami fermer xo'jaliklarining soni 2015 yil 1 oktyabr holatiga 10952 ta, shundan paxta-g'allachilik fermer xo'jaliklar soni 7355 ta, sabzavotchilik va polizchilik fermer xo'jaliklari soni 389 ta, bog'dorchilik-uzumchilik fermer xo'jaliklari soni 2032 ta, chorvachilik fermer xo'jaliklari soni 601 tani tashkil etishgan.

Samarqand viloyatida yer maydonlarini maqbullashtirish natijasida jami fermer xo'jaliklarining soni 2015 yil 1 dekabr holatiga esa 12641 ta, shundan paxta-g'allachilik fermer xo'jaliklar soni 8556 ta, sabzavotchilik va polizchilik fermer xo'jaliklari soni 428 ta, bog'dorchilik-uzumchilik fermer xo'jaliklari soni 2522 ta, chorvachilik fermer xo'jaliklari soni 536 tani tashkil etdi.

Maqbullashtirish natijasida o'rtacha fermer xo'jaliklari yer maydoni 32,1 ga, paxta-g'allachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari o'rtacha yer maydoni 41,3 ga, bog'dorchilik-uzumchilik 9,3 ga, chorvachilik fermer xo'jaliklari 36,9 ga yerni

tashkil etmoqda. Maqbulashtirish natijasida jami fermer xo'jaliklari soni 1689 taga oshgan.

## **2.2.Agrofirmalarni tashkil etish va rivojlanish asoslari.**

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar hozirgi kunda o'z samarasini bermoqda.

Fermer xo'jaligi mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonida turli korxona va tashkilotlar xizmatidan foydalanadi. Ularning aksariyati texnika, o'g'it, yonilg'i va shu kabi resurslar yetkazib bersa, boshqalari mahsulotni qayta ishlash uchun sotib oladi va ijtimoiy xizmat ko'rsatadi. Ana shu toifadagi korxonalarini yagona bozorga birlashtiruvchi, ularning o'zaro bozor munosabatlarini amalga oshiruvchi, ularga ko'maklashuvchi tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish hozirgi zamon talabidir.

Chunki meva, sabzavot, poliz, uzum yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining ko'pchiligi hali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish, saqlash, qayta ishlash, eksportga chiqarish bilan bog'liq masalalarni mukammal o'zlashtirmaganliklari agrofirmalarni tashkil etish ehtiyojini keltirib chiqardi.

Agrofirmalar dehqonchilik mahsulotlarini sotib olish, saqlash, qayta ishlash, sotish, jumladan eksportga chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi.

Agrosanoat firmasining Nizomi O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi, qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 9 yanvardagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3709-sonli Farmoni, hamda 11 yanvardagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 255-sonli qarori asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Meva sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006 yil 9 yanvardagi PF-3709 – son Farmoniga muvofiq meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida agrosanoat firmalari (keyingi o'rinda Agrofirma deb yuritiladi) tashkil etish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibini belgilaydi.

Agrofirma, fermer xo'jaliklari va aholi tomonidan yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlari va uzumni qayta ishlash hamda sotish asosiy faoliyati bo'lgan yuridik shaxs hisoblanadi.

Quyidagilar agrofirmaning yuridik asosi bo'lishi mumkin:

- meva-sabzavot mahsulotlari va uzum, shuningdek boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari;
- barqaror xo'jalik aloqalariga va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalariga ega bo'lgan meva-sabzavot mahsulotlari va uzumni qayta ishlash korxonalar;
- yuridik shaxs bo'lмаган yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;
- xorijiy investorlar;

- agrofirmalarda qatnashishi qonunda taqiqlanmagan boshqa shaxslar.
- Agrofirmani ta'sis etishda uning qatnashchilari o'z mustaqilligini saqlab qoladi.
- Agrofirmalar uning qatnashchilari tomonidan ixtiyoriy tartibda tashkil etiladi.
- Agrofirmalar tijorat tashkilotlari hisoblanadi va qonunda nazarda tutilgan har qanday tashkiliy – huquqiy shaklda tashkil etilishi mumkin.

Agrofirmalar ular Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgustdagি 357-son qarori bilan tasdiqlangan tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida Nizomga muvofiq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtidan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi.

Agrofirmalarni ta'sis etishda muassislar tegishli tashkiliy-huquqiy shakldagi subyektlarni tashkil etish uchun belgilangan qonun hujjatlari talablarini bajarish kerak.

Agrofirmalar tarkibida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, tashish, tayyorlash ularning marketingini olib borish va boshqalar bo'yicha bo'linmalar tashkil etilishi mumkin.

Davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari agrofirmalarning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

### **Agrosanoat firmalarini shakllantirish va ularning faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillari.**

Agrosanoat firmalarini shakllantirish va ularning faoliyatini tashkil etish quyidagi asosiy tamoyillarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

Agrofirmalar fermer xo'jliklari tomonidan ixtiyoriy asosda tashkil etiladi, bunda muassislar tarkibiga, fermerlar bilan bir qatorda, barqaror xo'jalik aloqalariga va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalariga ega bo'lgan, shuningdek yaqin atrofdagi hudud joylashgan meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini kirishi mumkin;

Agrofirmalar istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda, shu jumladan xorijiy investor bilan qo'shma korxonalar shaklida tashkil etilishi mumkin;

Fermer xo'jaliklarining agrofirmalar tarkibiga kiruvchi qayta ishlaydigan va boshqa korxonalar bilan o'zaro munosabatlari tuzilgan uzoq muddatli shartnomalar asosida amalga oshiriladi, Ushbu shartnomalarda tomonlarning huquq va majburiyatlarini tartibga solinadi, shu jumladan yetkazib beriladigan mahsulotning kamida 30 foizi avans bilan ta'minlanishi hamda keyinchalik mahsulotlarning kafolatli ravishda xarid qilinishi belgilab qo'yilgan;

Fermer xo'jaliklari – agrofirmalar ta'sischilarini shartnomadagi ortiqcha yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'z xohishiga ko'ra ichki bozorda sotadi va eksport qiladi.

### **Agrofirmalarning maqsadi va asosiy vazifalari**

Agrofirma asosan qishloq joylarda, uning qatnashchilari sa'y-harakatlarini, ularning moddiy va ma'naviy resurslarini birlashtirish asosida tashkil etiladi.

Agrofirma faoliyatining asosiy maqsadi hududdagi fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish, Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash, eksport qilish hamda boshqa turdagи xo'jalik faoliyatini amalga oshirishdan daromad olishdir.

O'z maqsadini amalga oshirish va vazifalarini bajarish uchun agrofirmaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- shartnoma asosida fermer xo'jaliklarining buyurtmasiga ko'ra mexanizasiya va agrotexnik tadbirlarni bajarish va boshqa xizmatlar ko'rsatishni muvofiqlashtirish;
- marketingni tashkil etish, bozor kon'yunkturasini o'rganish, yetishtirilgan mahsulotlarni sotishda xo'jaliklar, korxonalar va tashkilotlarga ko'maklashish;
- fermer xo'jaliklari tomonidan qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orish tartiboti (rejim) asosida aniqlangan hamda umumiy ajratilgan cheklangan suv miqdorini belgilash va barcha iste'molchilarga suv manbalari bo'yicha teng miqdorda taqsimlanishini ta'minlash;
- lizing asosida transport vositalari va mexanizmlar olishda xizmat ko'rsatish;
- ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash korxonalari va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida shartnomalar tuzilishini tashkil etish;
- suv, urug', o'g'it, yonilg'i-moylash materiallari, biomateriallar bilan ta'minlash bo'yicha amaliy yordam berish;
- Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni o'simliklarni himoya qilish vositalari bilan ta'minlash;
- fermer xo'jaliklariga meva-uzum, sabzavot, poliz, kartoshka va boshqa ekinlarning agrotexnikasi bo'yicha maslahatlar berish;
- fermer xo'jaliklarini yuqori hosil beradigan, sifatli qishloq xo'jaligi ekinlari urug'lari va mevali daraxtlar, toklarning ko'chatlari bilan ta'minlash;
- viloyat va tumanda yetishtirilmagan urug' turlarini boshqa viloyatlardan keltirish hisobiga iste'mol uchun Chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchi aholini, fermerlarni to'liq miqdorda sifatli va navdor urug'lar bilan ta'minlash maqsadida dala-do'konlari tashkil etish;
- a'zolarning talab ehtiyojidan kelib chiqib, urug'chilikda qo'llaniladigan urug' ajratadigan, tozalaydigan, qadoqlaydigan, saqlaydigan maxsus mexanizm va moslamalar bilan jihozlangan urug'chilik punktlarini tashkil etish;
- ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh urug'lik mahsulotlarining yangi navlarini yetishtirishga ko'maklashish;
- urug'chilik bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish;
- dehqon va fermer xo'jaliklariga biznes-rejalar tuzishda xizmat ko'rsatish;
- fermer xo'jaliklariga almashlab ekishni to'g'ri tashkil qilish maqsadida ekinlarni to'g'ri joylashtirish;
- fermer xo'jaliklariga ularning texnika vositalarini ta'mirlashda xizmat ko'rsatish;
- ulgurji va chakana savdo faoliyatini amalga oshirish;
- tara-idishlar ta'minotini va transport xizmatini tashkil qilish;
- brokerlik xizmatini ko'rsatish;
- Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishslash va sotish bilan shug'ullanish;
- vositachilik faoliyati bilan shug'ullanish;
- qo'shma korxonalar tuzish bilan shug'ullanish;

- investisiyalarni jalb etishda xo'jaliklarga va boshqa korxonalarga ko'maklashish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish;
- O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ta'qilanganmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanish.

### **Agrofirmaning huquq va majburiyatları**

Agrofirma quyidagi huquqlarga ega:

- ishlab chiqarish faoliyatini mustaqil tashkil etish va amalga oshirish, shu jumladan meva-sabzavot mahsulotlari va uzumni qayta ishslash;
- yetishtirilgan mahsulotlarni sotish uchun yuridik va jismoniy shaxslar bilan, shu jumladan byudjet tashkilotlari bilan xo'jalik shartnomalari tuzish;
- mahsulotni sotib olish yuzasidan fermer va dehqon xo'jaliklari bilan fyuchers shartnomalari tuzish;
- aholidan meva-sabzavot mahsulotlari va uzumni xarid qilish;
- yetishtirilayotgan mahsulotga va bajarilayotgan ishlar (ko'rsatilayotgan xizmatlar)ga mustaqil narx belgilash;
- olingan daromad (foyda)ni, shuningdek o'ziga xizmat ko'rsatuvchi banklarning hisob raqamlaridagi pul mablag'lарini o'z xohishiga ko'ra belgilangan tartibda tasarruf etish;
- kreditlar, shu jumladan imtiyozli kreditlar olish, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki, pul mablag'lарini shartnomada asosida jalb etish hamda ularni ishlab chiqarishga va takroriy ishlab chiqarishga yo'naltirish;
- o'zining huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilib sudga murojaat qilish.

Agrofirma qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlardan ham foydalanadi.

#### **Agrofirma:**

- o'z xodimlari uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashga;
- tuzilgan shartnomalar shartlarini bajarishga;
- soliqlar va majburiy to'lovlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lashga majbur.

Agrofirma qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi.

#### **Agrofirmalarni tashkil etish**

Fermer xo'jaliklari, qayta ishslash va savdo korxonalari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida umumiyl maqsadlarga erishish uchun ixtiyoriy ravishda birlashishlari mumkin.

Agrofirma odatda tugatilayotgan har bir xo'jalik hududida yoki mahalliy sharoitdan kelib chiqib, ikki va undan ortiq xo'jaliklar hududida tuzilishi mumkin.

Agrofirmalarni ta'sis etishda uning qatnashchilari o'z mustaqilligini saqlab qoladi.

Agrofirmalar o'z-o'zini moliyalashtirish (xo'jalik hisobi) tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi tijorat tashkilotlari hisoblanadi va qonunda nazarda tutilgan har

qanday tashkiliy- huquqiy shaklda, shu jumladan xorijiy investor bilan qo'shma korxonalar shaklida tashkil etilishi mumkin.

Agrofirmalar Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 20 avgustdagি 357-son qarori bilan tasdiqlangan. Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida Nizomga muvofiq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan vaqtadan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi.

Agrofirmalar uning ta'sischilarini soni 50 kishigacha bo'lsa, ma'suliyyati cheklangan jamiyat shaklida, undan ortiq yoki ta'sischilarini cheklanmagan bo'lsa qonunda nazarda tutilgan har qanday tashkiliy-huququy shaklda tashkil etilishi mumkin.

### **Agrofirmaning Ustav fondi va mol-mulki**

Ma'suliyyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etiladigan agrofirmalarning Ustav fondi miqdori eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan kam bo'lmasligi, agrofirmani davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan paytga qadar uning har bir ishtirokchisi ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan Ustav fondidagi o'z hissasining kamida 30 foizini kiritishi, agrofirma davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab har bir ishtirokchi bir yildan oshmagan muddat mobaynida Ustav fondiga o'z hissasini to'liq kiritishi lozim.

Ulushini o'z vaqtida kiritmagan yoki to'liq kiritmagan Ta'sischi boshqa ta'sischilar oldida javobgar hisoblanadi va qonunchilikda belgilangan tartibda unga nisbatan ta'sir chorasi ko'rildi.

Fermer xo'jaliklari, qayta ishslash va savdo korxonalari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy ravishdagi mol-mulklarini va qo'shimcha mablag'lari birlashtirilib agrofirma Ustav fondi tashkil etiladi.

Agrofirmaning har bir ishtirokchisi o'zi qo'shgan mol-mulk ulushi doirasida uni ta'sischisi hisoblanadi.

Ustav fondiga qo'shiladigan hissalar pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, qo'zg'aluvchan va ko'chmas mulklar, o'ziga ashyolar, mulkiy huquqlar yoki pul bahosiga ega bo'lgan boshqa mol-mulk bo'lishi mumkin. Agrofirmaning Ustav fondini ko'paytirish olingan foyda hisobidan, yangi ta'sischilarni qabul qilish, qo'shimcha ulush kiritish hamda qonunchilikda va ta'sis hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa usullarda amalga oshiriladi.

### **Agrofirmaning mol- mulki:**

- muassislar tomonidan uning ustav fondiga ulush shaklida qo'shilgan mol-mulk;
- ishlab chiqarish faoliyati natijasida olingan mahsulotlar;
- tovarlarni sotish, ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish)dan, shuningdek faoliyatning boshqa turlarini amalga oshirishdan olingan daromad (foyda);
- qimmatli qog'ozlardan olingan daromad;
- yuridik va jismoniy shaxslarning beg'araz, xayriya va boshqa ehsonlar;
- belgilangan tartibda sotib olingan texnologiya asbob-uskulunalarini, binolar, transport vositalari, pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk obyektlari hamda boshqa mol-mulk;
- jalb etilgan mablag'lar;

- kreditorlar bilan to'liq hisob-kitob qilingandan keyin tugatilayotgan shirkat xo'jaligining hisob raqamida qolgan hamda xo'jalik a'zolariga dividend sifatida beriladigan mablag'lar (ularning xoxishiga ko'ra ulush sifatida qo'shishlari mumkin):

- qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga shakllantirishi mumkin.

### **Agrofirmani qayta tashkil etish va tugatish**

Agrofirmani qayta tashkil etishi yoki tugatish qonunchilikda belgilangan tartibida amalga oshiriladi.

Agrofirmani qayta tashkil etish Ta'sischilarining umumiyligi yig'ilishi qarori bo'yicha uni qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish, qayta tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi. Agrofirmani qayta tashkil etishda uning barcha huquq va majburiyatlari huquqiy vorisiga o'tadi.

Agrofirmani tugatish ta'sischilarining umumiyligi yig'ilishi yoki xo'jalik sudining qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Agrofirmani davlat ro'yxatidan o'tkazish organi tomonidan agrofirmalarning yagona davlat reyestriga tegishli yozuv kiritilgan vaqtadan boshlab agrofirmani tugatish yakunlangan, agrofirma esa o'z faoliyatini tugatgan deb hisoblanadi.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. Chorvachilik korxonalarining agrar sanoat majmuidagi o'rni va moxiyati.
2. Chorvachilik korxonasi deb nimaga aytiladi.
3. Chorvachilik korxonalarining turlari.
4. Chorvachilik korxonalarini tuzish tamoyillari.
5. Fermer xo'jaliklari deb qanday xo'jaliklarga aytiladi.
6. Fermer xo'jaliklarini tashkil etish tamoyillari .
7. Fermer xo'jaliklarining nizomining qisqacha mazmunini tushuntiring
8. Fermer xo'jaliklarini tuzishdan maqsad nima.
9. Fermer xo'jaliklarining vazifalari.
10. Fermer xo'jaliklarining faoliyat doirasiga nimalar kiradi.
11. Fermer xo'jaliklari qanday tuziladi.
12. Fermer xo'jaliklari a'zolarining xuquq va burchlari nimalardan iborat.
13. Fermer xo'jaligini boshqarish.
14. Fermer xo'jaliklarini tashkil etish shartlari.
15. Fermer xo'jaliklarining mol-mulkka bo'lган xuquqi .
16. Fermer xo'jaliklarining mablaglari va xisob- kitoblari.
17. Fermer xo'jaliklarida yerdan foydalanish.
18. Fermer xo'jaliklariga beriladigan imtiyozlar nimadan iborat.
19. Fermer xo'jaliklari qanday yerlarda tuziladi.
20. Fermer xo'jaliklarida mexnatni tashkil etish va unga xaq to'lash qanday

## Glossariy

**AGROFIRMA** - muayyan turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va uni sanoat asosida qayta ishlaydigan korxonadan iborat.

**AGROSANOAT BIRLASHMALARI** - qishloq xo'jaligi, sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi va tijorat ishlari bilan shug'ullanuvchi korxonalar yig'indisi.

**BIZNES REJA** - bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikning barcha sohalarida qo'llanadigan muhim quro'l bo'lib hisoblanadi. Ish jarayoni haqida ma'lumot beradi. Uning yordamida firma o'sib borishi, istiqbolni belgilab borishi, daromadini ko'paytirishi mumkin. BR o'ta muhim moliyaviy hujjat sifatida firma faoliyatini barcha qirralarini tahlil qilishga yordam beradi. U nafaqat ichki hujjati bo'lib, balki kredit olishi uchun zarur bo'ladigan hujjatlardan biridir.

**DAVLAT BUYURTMALARI** – davlat tomonidan muayyan mahsulot turini (hozirgi kunda paxta va g'allani) yetkazib berish bo'yicha qishloq xo'jaligi korxonalari bilan tuzilgan shartnomalashirish.

**DAVLAT TASARRUFIDAN CHIQARISH** - bu davlat mulkini mulkchilikning har xil mulk shakllariga aylantirish demakdir.

**EGALIK QILISH** - mulkka rasmiy va huquqiy egalik qilishdir.

**FERMER XO'JALIGI** - o'ziga uzoq muddatli ijaraqaga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqorishi bilan shug'ullanuvchi, a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yuritish subyekti.

**IJARA** - (arab)-mustaqil xo'jalik yuritish yoki boshqa biror faoliyatni amalga oshirish maqsadida yer, suv, korxona va boshqa mulkka egalik qilish hamda vaqtincha foydalanish uchun to'lanadigan muayyan haq. I. mulkka egalik huquqini o'zgartirmaydi.

**MULK** - turli-tuman ob'yektlarning muayyan sub'yektga taalluqli ekanligini anglatadi.

**MULKCHILIK** - kishilar o'rtaida ishlab chiqarish vositalari va mehnat natijalarini o'zlashtirish bo'yicha paydo bo'lgan va tarixan aniq bir shaklda namoyon bo'luvchi iqtisodiy munosabatlar. M.- ning asosiy bo'g'ini ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilik. U uchta iqtisodiy unsur ya'ni egalik qilish, foydalanish (ishlatish) va tasarruf etishni mujassamlashtiradi.

**MULKCHILIK SHAKLLARI** - bu davlat, jamoa, xususiy va aralash mulklardir.

**CHORVACHILIK KOOPERATIVI (SHIRKAT XO'JALIGI)** – tovar Chorvachilik mahsuloti yetishtirish uchun pay usulga va asosan oila (jamo'a) pudratiga, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga, boshqarishning umumiyligiga asoslangan, yuridik shaxs huquqiga asoslangan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt.

**TENDER** - biror bir ishni amalga oshirish uchun e'lon qilingan tanlov. Xaridor yoki buyurtmachi eng avvalo tanlov e'lon qilib, tanlov shartlari bilan tanishtiradi.

Tanlovda ishtirok etish niyatini bildirgan firmalar, korxona va tashkilotlar o'z takliflarini - tenderlarni buyurtmachiga ko'rib chiqish uchun yuborishadi.

**USTAV FONDI** - korxonalar faoliyatini ta'minlash uchun ta'sischilar tomonidan dastlab kiritiladigan va keyinchalik ko'paytirib borish mumkin bo'lган, hajmi korxonaning ustavida belgilab qo'yiladigan mablag'. Shirkat xo'jaliklarida pay fondi va bo'linmas fonddan iborat bo'ladi.

### **Foydalangan adabiyotlar.**

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Jo'rayev F. Chorvachilik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. – Toshkent, 2004-344 b. "Istiqlol"
2. Samatov G.A., Yodgorov J.Yo., Rustamova I.B Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Darslik. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». – Toshkent: ToshDAU taxririyat-nashriyot bo'limi, 2005. – 508 b.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi", 2011. – 346 b.
2. Samatov G'A, Yodgorov J.Yo, Rustamova I.B. Qishloqda zamonaviy bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish va servis xizmatini tashkil etishning asoslari (fermerlar tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha biznes maktablar tinglovchilari uchun qo'llanma).–T.:ToshDAU taxririyyati 2004.
3. Umurzoqov U.P. va boshq. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2007. – 276 b.
4. Shakirov F.K., Korolev Yu.B., Pastuxov A.K. i dr. Organizasiya selskoxozyaystvennogo proizvodstva i menedjment: uchebnik dlya vuzov. – M.: Kolos OOO, 2008. – 607 s.
5. Ergashev R.X. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik.-T.: EXTREMUM-PRESS, 2011, 386 b.

### **Internet saytlari**

1. <http://www.tsue.uz/> – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
2. <http://www.timacad.ru/> – K.A.Timiryazeva nomidagi Moskva davlat qishloq xo'jaligi akademiyasi, iqtisodiyot fakulteti.
3. <http://www.stat.uz/> – O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi.
4. <http://www.lex.uz/> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.



